

**YOSHLARDA IJTIMOYIY FAOLLIK VA TOLERANTLIKNI YUKSALTIRISHNING  
MUHIM JIHATLARI**

Gulxayo Xasanboyeva,

o'qituvchi, Farg'ona davlat universiteti, O'zbekiston, Farg'ona sh.

**Annotatsiya:**

Bugungi kunda yoshlar omili, komil inson g'oyasining bosh maqsadiga aylanib, uning xususiyatlari, fazilatlarini, xislatlarini, xosiyatlari, sifatlarini, ichki imkoniyatlari, iste'dod alomatlarini qancha erta ro'yobga chiqarilsa, demak taraqqiyotni yuzaga keltiruvchi intellektual yoshlarni shakllantirish shunchalik tezlashadi. Inson komillik sari qancha tezkor harakat qilsa, u kamolotni ertaroq egallaydi, taraqqiyotni jadallashtirishga munosib hissa qo'shadi. Shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy xulqi va o'zini qanday tutishi, egallagan mavqei ham sababsiz, o'z - o'zidan ro'y bermaydi. Inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot – faoliyati jarayonida uni faol tarzda o'zlashtirib borish talab etiladi. Ijtimoiylashuv - har bir shaxsning jamiyatga qo'shilishi, uning normalari, talablari, kutishlari va ta'sirini qabul qilgan xolda, har bir harakati va muomalasida uni ko'rsatishi, shu ijtimoiy tajribasi bilan o'z navbatida o'zgalarga ta'sirini o'tkaza olishi jarayonidir. Maqolada yoshlarda ijtimoiy faollik va tolerantlikni yuksaltirishning o'ziga xos xususiyatlari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** komil inson, tarbiya, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy faollik, tolerantlik, tafakkur, madaniyat, ijtimoiy himoya, axloqiy madaniyat, tinchlik, yoshlar siyosati.

**KIRISH**

Ma'naviyat ilm, tarbiya, mehr bilan bo'ladi. Ammo u, avvalo, mas'uliyatdir. Ilm va imon insonga mas'uliyat yukini yuklaydi, uni riyozat va mehr bilan umr dovonlaridan elkalab o'tiladi. Inson shaxs bo'lib shakllanar ekan, yilma-yil o'zligini anglab boradi, bu o'zlikni anglash davomida ma'naviy kamolot pog'onalarini bo'ylab yuksaladi.

Hozirgi davrda yoshlarni ijtimoiy faollashtirish, jamiyatda diniy bag'rikenglikni shakllantirish masalalari tobora dolzarblashib bormoqda. Shuningdek, jahonda kechayotgan globallashtirish jarayonlari yoshlarning mehnatga ijobiy munosabatini shakllantirish, bandligini ta'minlash masalalari, shu bilan birga egoizm, ishsizlik, loqaydlik kabi jiddiy muammolar tizimini yuzaga kelishiga sabab bo'lgan holatlarning o'rganilishini taqozo etmoqda. Bu esa yoshlarda daxldorlik, fidoiylik, tadbirkorlik, tashabbuskorlik kabi sifatlarini rivojlantirishni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida innovatsion yondashuvlar negizida ilmiy izlanishlar olib borishga undamoqda.

**ASOSIY QISM**

Har bir inson bu yorug' olamda halol-pok umr kechirishi uchun atrof voqelik, ya'ni ijtimoiy muhit nisbatan muvofiqroq yoki nomuvofiqroq bo'lishi mumkin. Halol rizq topish, o'zi va oilasi iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash insonning shaxs sifatidagi eng birinchi vazifasi bo'lsa, uning ikkinchi muhim vazifasi o'zi yashab turgan ijtimoiy hayotni takomillashtirish ishida ishtirok

etishdir. Ijtimoiy hayot bugungi sharoitda yagona davlat hududida ko'pchilik tomonidan qabul qilingan o'z qonun-qoidalariga ega. Ana shu muayyan mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida umummilliy farovonlik va yuksalishi yo'lida faol ishtirok etish vazifasini **fuqarolik mas'uliyati** deyish mumkin.

**FAOLIYAT** — kishilarning tashqi olamga faol munosabati shakli, insonning o'zini o'zi maqsadga muvofiq tarzda o'zgartirish usuli, inson borlig'ining muhim xususiyatlaridan biri. Faqat faoliyat zamiridagina inson mohiyati namoyon bo'lishi, jamiyatning, har qanday ijtimoiy tuzilmaning mavjudligi ta'minlanishi mumkin. Inson va jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, faoliyat shakllari, asosan, quyidagicha turkumlashtiriladi: moddiy faoliyat (insonning o'z xavfsizligi ta'minlanishi, oziq-ovqat, kiyim-kechakka bo'lgan dastlabki ehtiyojlarining qondirilishi va mehnat qurollari orqali tashqi tabiatning o'zgartirilishi); ijtimoiysiyosiy faoliyat (ijtimoiy munosabatlarga, ijtimoiy hayotga ta'sir ko'rsatish); ma'naviy faoliyat (ilmfan, san'at, din, badiiy ijod va b. sohalaridagi faoliyat).

Inson faoliyati shakllari, turlari, avvalo, mehnat taqsimoti, odamlar, jamiyat ehtiyojining o'sishi jarayonida o'zgarib, rivojlanib boradi. Faoliyat elementlarini insonlar, inson ehtiyojlari va manfaatlari, faoliyat predmeti, motivlari, faoliyatning maqsadlari, amalga oshirish yo'llari, vositalari va usullari tashkil etadi. Faoliyat muayyan yaxlit jarayon sifatida o'zida mavjud olamni, ijtimoiy borliqni, amaliyotni o'zgartirish va tushuntirish dasturi hamda undan kelib chiqadigan harakatlar majmuini mujassamlashtiradi.

Yoshlik davrida yigit-qizlar kamolotiga 3 ta muhim psixologik mexanizm; mehnat jamoasi, oila mikro muhiti va norasmiy ulfatlar ta'sir ko'rsatadi. Masalan, mehnat jamoasidagi psixologik iqlim, ma'naviyat olami, berqarorlik, ijtimoiy ong, ijtimoiy qadriyatlar, muayyan an'analar va odatlar yangi a'zoning xarakterida ijobiy yoki salbiy o'zgarishni vujudga keltirish mumkin.

Mazkur ta'sir natijasida asta-sekin umuminsoniy fazilatlar tarkib topishi yoki muayyan shaxsiy nuqtai-nazar yo'qolishi mumkin. Mehnat jamoasiga yangi quyilgan a'zo unda o'z o'rni va qadr-qimmatini qaror toptirish uchun bir qator yon berishga, o'z maslagidan sal bo'lsada chetlashishga majbur bo'ladi.

Yoshlik davrida ijtimoiy faollik. Bu yo'l jamoasidagi psixologik iqlimga moslashish maqsadida ichki ruxiy ziddiyatlarga, murakab kechinmalarga, unsiz tug'yonga qarshi qo'yilgan qadam hisoblanadi. Shuning uchun yakka shaxs xarakterini shakllantiruvchi yoki uning mustaqil ichki rishtalarini yemiruvchi omil mehnat jamoasidagi ijtimoiy fikrdir.

Jamoaga bo'ysunish xar bir a'zoning burchidir. Ayrim xollarda ko'pchilikning tazyiqiga uchragan shaxsda prinsipiiallik, adolatlilik singari xislar, shaxsiy nuqtai-nazar bo'shshib qoladi, natijada unda ikkilanish tuyg'usi paydo bo'ladi. Yoshlik gashtini surayotgan yigit va qizlar otanasiga, buva-buvisiga, opasingillariga, aka-ukalariga, turmush o'rtog'iga farzandlariga oqilona munosabatda, oila a'zolarining har biri bilan to'g'ri muloqotda bo'lishi, muayyan qoidaga asoslangan muomala qilish shart.

Mamlakatimizdagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida etti tilda – o'zbek, qoraqalpoq, rus, qirg'iz, turkman, qozoq va tojik tillarida bilim berilayotgani, shuningdek, ommaviy axborot vositalari O'zbekistonda istiqomat qilayotgan millatlarning o'nta tilida faoliyat olib borayotgani buning yorqin ifodasidir. Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan barcha millat va elat vakillarining o'z

ona tilida o'qishi uchun keng imkoniyatlar yaratilgani, oliy o'quv yurtlari, kasb-hunar kollejlari, akademik litsey va maktablarda barcha millat vakillari uchun teng shart-sharoitlar yaratilgani, ko'plab tillarda gazeta va jurnallar chop etilib, teleko'rsatuv va radio eshittirishlar olib borilayotgani bu boradagi, ya'ni bag'rikenglik g'oyasini singdirishdagi faoliyatning yaqqol dalilidir.

Fuqarolik jamiyati – mazkur mamlakatning har bir fuqarosiga iqtisodiy va siyosiy turmushini o'z ixtiyori asosida qurishga to'la erkinlikni kafolatlovchi ma'lum ijtimoiy tizim[1]. Fuqarolik jamiyatini insonlardagi o'z – o'zini anglash, ularning ob'ektiv ravishdagi mas'uliyat hissini sezish qobiliyatining yuksalishiga hamohang ravishda shakllanib boradi.

Insonning ijtimoiy faollik mohiyati individning sotsiallasuvi negizida turadi, binobarin, bu jarayonda u shaxs sifatida tarkib topadi. Ijtimoiy faollik keng tushuncha bo'lib, u har bir kishining hayotdagi, turmushdagi tutgan o'rni, ijtimoiy voqelik, unda yuz beradigan o'zgarish, yangiliklarga munosabati, shuningdek uning yaratuvchilik borasidagi ishtiroki kabilardagi faolligini anglatadi. Shaxsda ijtimoiy faollikni shakllantirish va tarbiyalashning omillarini anglash esa pedagogika, psixologiya va sotsiologiya fanlarining vazifalaridan hisoblanadi. Bundan ko'rinadiki, ijtimoiy faollik bir vaqtning o'zida ham falsafiy, ham sotsiologik muammodir.

Fuqarolik jamiyatida ijtimoiy faollik ijtimoiy munosabatlarning ongli, beg'araz tahliliga hamda ularning u yoki bu elementlarini o'zgartirishga intilish darajasini ifodalaydi. Inson ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan biron – bir jiddiy muammoga duch kelgan hamda ularni hal etish uchun yangi qonunlarni qabul qilish yoki mavjud qonunlar mexanizmini takomillashtirish kerakligini anglagan taqdirda ijtimoiy faollik intilish yanada kuchayadi. Jamiyat a'zolarining ijtimoiy faolligi turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Namoyon bo'lishi tabiatiga ko'ra uni konstruktiv va destruktiv turlarga ajratiladi. Konstruktiv ijtimoiy faollik shundan iboratki, unda jamiyat a'zolari muayyan ziddiyatlar bilan to'qnashuvda ana shu ziddiyatlarni mavjud ijtimoiy tizim. Qonuniy huquqiy dasturlar yordamida bartaraf etish uchun intiladi. Mavjud qonunlar asosida o'z manfaatlarini ifodalash, muammolarni hal qilish uchun jamoat birlashmalarini tuzadi.

Agarki mamlakatimizning har bir fuqarosi, xususan o'sib kelayotgan yosh avlod o'z mustaqqil fikriga zamonlar sinovidan o'tgan hayotiy-milliy qadriyatlarga, sog'lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo'lmasa, har turli ma'naviy tahdidlarga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko'rinishdagi ta'siriga bardosh berish anchayin qiyin kechadi.

Bugungi dunyodagi davlatlararo, millatlararo, konfessiyalararo, insonlararo munosabatlarda bag'rikenglik tamoyilining roli va ahamiyatio'sib bormoqda. Jamiyat hayotida bag'rikenglik tamoyillarini qaror toptirishdan ko'zlangan maqsad - tinchlik va osoyishtalikni, millatlar va xalqlararo totuvlikni ta'minlashdan iborat.

Tolerantlik atamasi lotincha «chidamlilik» so'zidan olingan bo'lib, o'zgalarning fikrlari va qarashlariga nisbatan bag'rikenglikni anglatadi. «Tolerantlik – bu tinchlikka erishish imkonining mavjudligi hamda urush madaniyatsizligidan tinchlik madaniyati sari etaklovchi omildir», deyiladi 1995 yilda YUNESKO ning Bosh Konferentsiyasi tomonidan qabul qilingan «Tolerantlik tamoyillari deklaratsiyasi»da. Darhaqiqat, tolerantlik, biz yashayotgan dunyo madaniyatlarining rang – barangligini, o'zini namoyon etish shakllarini hurmat qilish, to'g'ri

tushunish va qabul qila olish; aqidaparastlik, mutloq haqiqatdan voz kechish va inson huquqlari sohasidagi xalqaro huquqiy hujjatlarda belgilangan me'yorlarga qo'shilish demakdir. Tolerantlik – bu yon berish, pisand qilmaslik yoki ikki yuzlamachilik emas, balki eng avvalo, inson huquq va erkinliklarini tan olish asosida qaror topadigan faol munosabatdir. Tolerantlik – bu o'zgalarning fikri, qarashlari va hatti – harakatiga nafaol, tabiiy ravishda bo'ysunishni anglatmaydi. Balki alohida odamlar, turli guruhlar, xalqlar, ijtimoiy guruhlar o'rtasida tushunish, ijobiy hamkorlik yo'lidagi faol axloqiy afzallik va psixologik hozirlikni anglatadi[2].

Fikrimiz yanada to'liq bo'lishi uchun bir qator aniq ma'lumotlarga tayandik. Ya'ni, "bag'rikenglik" ("Tolerantlik") tushunchasi ingliz olimi P.Medavar (1953) tomonidan ko'chirib o'tkazilgan begona to'qimaga nisbatan organizm immun tizimining chidamliligini ifodalash maqsadida taklif etilgan[3]. Sotsiologiyaga doir entsiklopedik lug'atda: "tolerantlik (lot. – chidamoq) – a) o'zgalarning turmush tarziga, xatti – harakatiga, urf – odatlariga, his – tuyg'ulariga nisbatan chidamlilik; b) noqulay emotsional omillarga chidamlilikdir..."[4], degan ta'rif berilgan.

Tadqiqotchi Z.Husniddinov esa, bu tushunchaga quyidagicha ta'rif beradi: "tolerantlik umumiy ma'noda biror narsa, hodisani, o'zgacha fikr va qarashni, o'z shaxsiy tushunchalaridan qat'iy nazar, imkon qadar chidam va toqat bilan qabul qilishni anglatadi"[5]. Shuningdek, diniy bag'rikenglik va uni shakllanishi va rivojlanishi haqida asosli qarashlari ilgari surilgan.

Diniy bag'rikenglik madaniyati jahonda ro'y berayotgan globallashuv tufayli ham yangi ma'no va mazmun kashf etmoqda. Shu munosabat bilan globallashuv sharoitida diniy bag'rikenglik tuyg'usini qaror toptirish globallashayotgan, madaniy qadriyatlar sintezlashuvi ro'y berayotgan XXI asr voqeligida "o'zaro bir-birini tushunish va hurmatning asosi bo'lib xizmat qiladi". Shuningdek, "bag'rikenglik - bu tinchlikka erishish imkonini beradi, madaniyat urushidan tinchlik madaniyatiga olib boradi"[6]. Diniy bag'rikenglik g'oyasi xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda buyuk g'oya va niyatlar yo'lida hamjihat, hamkor bo'lib yashashini, faoliyatini anglatadi.

Insonda bolalikdan boshqa odamni qanday bo'lsa, shundayligicha, uning fikri, tabiati, madaniyati, qarashlaridagi murakkabliklar bilan qabul qila olish layoqatini shakllantirish lozim. ta'lim va tarbiya orqali yoshlarga shunday fikrni singdirish orqali odamlar turmush tarzi, madaniyati, ijtimoiy kelib chiqishi, moddiy faravonligi va hokazolarga qaramay, o'zaro teng ekanligini anglatishi lozim.

"Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-madaniy hayotini millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik (tolerantlik)ni qaror toptirish asosida uyg'unlashtirishda estetik va axloqiy qadriyatlarni o'zaro mutanosib tarzda harakatga keltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda turli millat va diniy konfessiyalar vakillari o'rtasida o'zaro hurmat, do'stlik va ahillik muhitini mustahkamlashga birinchi darajali e'tibor qaratiladi"[7]. Ayni shu ma'noda, umuminsoniy tamoyillardan birini vijdon erkinligi masalasi tashkil qiladi. Jahon hamjamiyatining bir bo'lagi sifatida u O'zbekistonda ham amal qilinadigan umuminsoniylik tamoyildir. Chunki bu masala zamirida shaxsning huquqiy, demokratik, adolatparvarlik, insonparvarlik kabi ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy tushunchalar turadi.

Ogoh bo'lish, sodir bo'layotgan voqealarga nisbatan befarq qolmaslik hozirgi davrda yoshlarning ijtimoiy faolligini taqozo etadi. Bu esa yoshlarni mehr – oqibat, adolat, demokratiya

ruhida tarbiyalash, ularda o'z o'zini tarbiyalash va rivojlantirish tuyg'usini shakllantirish, ijtimoiy faollikka bo'lgan ehtiyoj, turli va keng ko'lamdagi axborotlarni to'g'ri baholay olish va yangi bilim sohalarini o'zlashtirish kabi xususiyatlarning shakllanishini jonlantiradi. Zamonaviy ta'limning vazifalaridan biri yoshlar o'rtasida ijtimoiy faollik va tolerantlikni rivojlantirishdir[8]. Sergak bo'lish, sodir bo'layotgan voqealarga nisbatan befarq qolmaslik hozirgi davrda yoshlarning ijtimoiy faolligini talab etadi. Bu esa yoshlarni mehr – oqibat, adolat, demokratiya ruhida tarbiyalash, ularda o'z – o'zini tarbiyalash tuyg'usini shakllantirish, ijtimoiy faolligini oshirish, axborotlar ko'lamini to'g'ri baholay olish va yangi bilim sohalarini o'zlashtirish kabi xususiyatlarni shakllantirishni talab qiladi. Zamonaviy ta'limning ustuvorliklaridan biri yoshlar o'rtasida bag'rikenglik va ijtimoiy faollikning kuchayishida namoyon bo'ladi.

Ayrim yoshlar o'z g'alarining fikrini tushuna olmasligi va tushunishni istamasligi borasida qiyinchiliklarga duch kelinadi. Ular ro'paralarida o'z fikrlash va hatti – harakat tarziga ega inson turganligini hatto tasavvur ham etolmaydi. Ko'pincha ular boshqalarga o'z fikrini o'tkazishga intiladi, bundan tashqari ular bag'rikenglik masalalarida savodsizdir. O'quvchilar bag'rikengligini shakllantirish dars jarayonida muloqotda o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlikning asosiy tamoyillaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

Jamiyat yoshlari ijtimoiy faol va bag'rikeng bo'lishi uchun respublikamizda inson huquqlari to'g'risidagi mavjud xalqaro konvensiyalarni ratifikatsiya qilish, yoshlar siyosatini amalga oshirishni ta'minlaydigan qonunlarni qabul qilish bilan birga, jamiyatimizdagi barcha tabaqa kishilari va alohida shaxslar ongiga ularning mazmun va ma'nosini singdirish va o'zlashtirish ishlariga yana ham kengroq imkoniyatlar yaratish va joriy ettirish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

## XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, faqat millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik g'oyalariga tayanib, umumiy maqsadlar yo'lida hamjixatlik ila yoshlarda tolerantlik dunyoqarashni shakllantirib, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligidek oliyjanob maqsadlarga erishish mumkin. Mamlakatimizda qurilayotgan fuqarolik jamiyatning tamoyillari, adolatli jamiyat qurishning huquqiy asoslari xalqimiz tomonidan qo'llab quvvatlanmoqda. YUrtimizda turli diniy e'tiqodga ega bo'lgan xalqlarning bir Vatanda buyuk g'oya va sof niyatlar yo'lida hamkor va hamjamiyat bo'lib yashayotgani - diniy bag'rikenglikning yorqin namunasidir.

## Adabiyotlar:

1. Falsafa: qomusiy lug'at. Toshkent, 2004 yil, 438-bet
2. Qarang: Tolerantlik tamoyillari demokratiyasi. Parij, 1995 yil, 16-noyabr. 7-8-betlar
3. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.8 Tom.- T.: 2004.– B.486.
4. Sotsiologik ensiklopedik lug'at. – M.: 1998. – B.370.
5. Husniddinov Z. O'zbekistonda diniy bag'rikenglik (monografiya).- Toshkent islom universiteti, 2006. – B.8.
6. BMT Bosh kotibining “Xalqaro bag'rikenglik kuni” munosabati bilan yo'llagan bayonotnomasi (2008 yil 16 noyabr) .-Toshkent.: // Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari, №4 (44). 2008. – B 166.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Toshkent. “O‘zbekiston” NMIU. 2019. – B 58.
8. Qodirova Z.R., Sharipov A.J., Alimasov V.A., Karimova E.G., Madaeva Sh.O. Yoshlar ijtimoiy faolligi va tolerantligini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari. Toshkent, 2006 yil, 18-bet.
9. Boltaboyev, M., & Toirjonova, R. (2023, June). THE POLICY CARRIED OUT IN THE COTTON FIELD OF THE CHUR GOVERNMENT. In *International Conference On Higher Education Teaching* (Vol. 1, No. 6, pp. 51-54).
10. Болтабоев, М. (2023). СОВЕТ ХОКИМИЯТИНИНГ ДАСТЛАБКИ ЙИЛЛАРИДА ВАҚФ МУЛКЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИГА ДОИР АЙРИМ ҚАРАШЛАР. *Interpretation and researches*, 1(1).
11. Boltaboyev, M., & Abdurakhimova, S. (2023, June). THE GENERAL CONDITION OF THE CRIMEAN TATARS RESETTLED IN UZBEKISTAN AND THEIR ACTIVITIES IN THE NATIONAL ECONOMY. In *International Conference On Higher Education Teaching* (Vol. 1, No. 5, pp. 87-90).
12. Болтабоев, М. (2022). Религиозные реформы, проведенные при соляном режиме. *Актуальные проблемы истории Узбекистана*, 1(1), 455-461.
13. Комилов, А., & Болтабоев, М. (2022). ЎЗБЕКИСТОН–УМУМИЙ УЙИМИЗ. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(3), 141-148.
14. Esonaliyeva, N. D. (2021). ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN INCREASING LEARNING EFFICIENCY. *O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI*, 435.
15. Норматова, Д. (2022). ДИН ФАЛСАФАСИДА ИНСОН ВА УНИНГ ЖАМИЯТДАГИ ЎРНИ. *Research Focus*, 1(2), 289-295.
16. Норматова, Д. (2022). ДИН МАЪНАВИЙ ҚАДРИЯТ СИФАТИДА. *Research Focus*, 1(1), 40-45.
17. Rasulova, A., & Karimov, U. (2022). Socio-Pedagogical aspects of the formation of reading culture and skills. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(4), 114-118.
18. Rasulova, A., & Raxmonqulova, M. (2022, November). TIL VA JAMIYATNING O‘ZARO MUNOSABATLARIDA NUTQINI IJTIMOY-LISONIY ASPEKTIDA TADQIQ ETISH. In *INTERNATIONAL CONFERENCE DEDICATED TO THE ROLE AND IMPORTANCE OF INNOVATIVE EDUCATION IN THE 21ST CENTURY* (Vol. 1, No. 8, pp. 125-128).
19. Имомова, Н. А. (2020). Молодежные перспективы в занятости узбекистана. In *НАУКА И ТЕХНИКА. МИРОВЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ* (pp. 117-119).
20. Усмонов, А., & Мўйдинов, Д. (2022). Фарғона Водийси Аҳолисининг Ижтимоий-Моддий Аҳволи. *Gospodarka i Innowacje*, 24, 760-764.
21. Усмонов, А., Мўйдинов, Д., & Юсупов, Ж. FAN, TA‘LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI.
22. Усмонов, А. (2022). ЎЗБЕКИСТОН АҲОЛИСИНинг ИЖТИМОИЙ-МОДДИЙ АҲВОЛИ (1930-1980 ЙИЛЛАР). *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(6), 270-275.

24. Усмонов, А., Мақсумов, Н., & Инамов, О. (2022). 1946-1991 ЙИЛЛАРДА ФАРФОНА ВИЛОЯТИДА ИЖТИМОЙ ТАЪМИНОТ МУАССАСАЛАРИ ФАОЛИЯТИ. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(6), 366-372.
25. Усмонов, А., Мўйдинов, Д., & Юсупов, Ж. (2022). 1946-1991 ЙИЛЛАРДА ЎЗБЕКИСТОНДА ИЖТИМОЙ ТАЪМИНОТ ТИЗИМИ. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(6), 332-339.
26. Боротов, А. (2022). ХУСУСИЙ МУЛК ҲУҚУҚИНИ ИШОНЧЛИ ҲИМОЯ ҚИЛИШНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ: ТАКОМИЛ ЙЎЛИДА. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 96-102.
27. Сулаймонов, Қ. (2022). ЁШЛАР ИНТЕЛЛЕКТУАЛ МАДАНИЯТИ ШАКЛЛАНИШИГА ОБЪЕКТИВ ВА СУБЪЕКТИВ ОМИЛЛАР ТАЪСИРИ. *Science and innovation*, 1(В3), 688-696.
28. Хасанбоева, Г. (2021). ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИДАН СЎНГ ФАРФОНА ВИЛОЯТИДА ПАХТА ЯККАҲОКИМЛИГИ ВА УНИНГ ОҚИБАТЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 2(12), 451-455.
29. Hasanboyeva, G. (2022). YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA TEMURIYLAR DAVRI MA'NAVIY MADANIYATINING ANAMIYATI. *Research Focus*, 1(4), 283-286.
30. Hasanboyeva, G. (2022). THE ISSUE OF TRAINING SPECIALISTS IN THE FIELD OF AGRICULTURE IN THE FERGHANA REGION. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(06), 74-83.
31. Хасанбоева, Г. (2023). ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ БИЛАН БАНД АҲОЛИНИНГ ТУРМУШ ТАРЗИ (КОЛХОЗ ШИЙПОНЛАРИ, ЯСЛИЛАР). *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(5), 107-111.
32. Gulnoza, K. (2023). MAMLAKATIMIZDA YOSHLAR AXLOQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA DAVLAT HAMDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING O'RNI. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 15, 444-448.
33. Gulnoza, K. (2023, May). INFORMATION SECURITY AND MORAL THREAT. In *INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 1, No. 9, pp. 53-57).
34. Бозаров, Д. М., & Каримова, Г. Й. (2021). МУРАККАБ ИЖТИМОЙ ТИЗИМЛАРДА ЎЗ-ЎЗИНИ ТАШКИЛЛАШТИРИШ МОДЕЛИНИНГ ЎРНИ. *Oriental Journal of Social Sciences*, 1(1), 1-9.
35. Каримова, Г. (2022). МАЪНАВИЯТ ВА МИЛЛИЙ ТАРБИЯ. *Экономика и социум*, (3-2 (94)), 612-615.